O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR

mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami

(2024-yil 17-18-may)

(2-qism)

JIZZAX-2024

“Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar” mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali, 2024-yil 17-18-may. 461-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., PhD. O‘ralov A.I.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., t.f.f.d.(PhD), dotsent Abdumalikov A.A., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), dots. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dotsent Alibayev S.X., p.f.f.d. (PhD) Halimov O‘.H., p.f.f.d.(PhD), dotsent Karshiyev A.A., f.f.f.d.(PhD), dotsent Sindorov L.K., t.f.f.d. (PhD), dotsent Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD), dotsent Mustafaqulov M.A., f.f.f.d. (PhD) Alibekov D.A.., f-m.f.f.d. (PhD) Sharipov X.F., ps.f.f.d.(PhD) Norbekova B.Sh., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Qayumov O.A., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma’ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

10. Komilova, A., & Adilova, M. (2023). AGRESSIYA–OSMIRLARDA YUZAGA KELADIGAN TAJOVUZKORLIK RIVOJLANISHIGA TASIR ETUVCHI FENOMEN SIFATIDA. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1).

11. Komilova, A., Husenova, M., & Xidirova, M. (2023). O‘SMIR YOSHIDAGI O‘QUVCHILARNI KASB HUNARGA YO‘NALTIRISHNING ASOSIY XUSUSIYATLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, *3*(1).

12. Aziza, K., & Xurshida, M. (2023). TA’LIM-TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISHNING O ‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 419-422.

13. Aziza, K., & Mohinabonu, H. (2023). TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 87-89.

14. Komilova, A. S. (2023). O ‘QUV TARBIYA JARAYONINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA INDIVIDUAL YONDOSHUV. *GOLDEN BRAIN*, *1*(31), 126-133.

“MEN” KONSEPSIYASINING RIVOJLANISHIDA IJTIMOIY MUHITNING O‘RNI VA ROLI

Komilova Aziza Sunatullayevna,
Saydullayeva Diyora
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxsning shaxs sifatida rivojlanishi, kamol topishida, g‘z menini va g‘zligini anglab borishida ijtimoiy muhit, oila hamda faoliyatning o‘rni haqidagi ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Oila, tashqi muhit, o‘z-o‘ziga baho berish, men konsepsiyasi, shaxs, jamiyat, muloqot, faoliyat.

Jamiyat bilan shaxsning munosabatlari, erkinligi uning huquqi va burchlari, insoniy qadiryatlari xaqidagi muammolar barcha tarixiy davrda xam buyuk mutaffakirlarining e`tiborida turgan eng muhim masalalaridan bo‘lib hisoblangan. Mana shu jamiyatning asosiy a’zosi bo‘lgan shaxsning shaxs sifatida rivojlanishida o‘z-o‘zini anglash muhim hisoblanadi. Shaxsning o‘z-o‘zini anglashi “Men” konsepsiyasi asosida rivojlanadi. Insonni g‘zi haqidagi tasavvurlari, g‘oyalari, baholari va hulq atvor tendensiyalari yig‘indisi “Men” konsepsiyasi deb ataladi. Boshqacha qilib aytganda “Men” konsepsiyasi subyektni g‘zi haqidagi eng umumiy ustanovkalari tizimi hisoblanadi.

Shaxsning rivojlanishiga nazar solar ekanmiz, avvalo uning rivojlanishida oilaning xususan ota-onaning roli muhimdir. Ya’ni bola dastlabki andozani ota-onasidan oladi. Keyingi bosqichlarda esa bolaning rivojlanishida ijtimoiy muhit bevosita ta’sirini ko‘rsatadi. Shaxsning “Men” obrazi shaxs ijtimoiy psixologiyada,

garchi uning shakllanishiga jinsi, temperamenti, irsiy belgilari kabi biologik tavsiflar ham ma'lum darajada ta’sir ko‘rsatsa-da, ijtimoiy fenomen sifatida qaraladi. B.G.Ananyevning ta’kidlashicha – “Shaxs o‘zi haqda bir fikrga kelishida, jamoa hayotini hamda o‘ziga baho berishni shakllantiruvchi baholash munosabatlarining to‘g‘ri rivojlanishi muhimdir”. Shaxsda o‘zini anglash va baholashning paydo bo‘lish omili odamning individual xususiyati, faoliyat subyektliligi, shaxs xususiyatlarining tarkib topishi notekis va geteroxrondir deb hisoblaydi. Olimning mulohazasiga ko‘ra, o‘zini anglash va baholash ushbu xususiyatlarni o‘zaro muvofiqlashtiradi va shu tariqa ongning individualligini ta’minlaydi. Ya’ni bunda shaxs o‘z-o‘ziga bo‘lgan bahoni jamoaning fikriga bog‘liq tarzda baholaydi. Qachonki shaxs boshqalarni tushuna olsa demak u o‘zini ham tushuna boshlaydi.

Rus psixologi L.S.Vigotskiy fikricha, shaxsning o‘ziga baho berishida muloqot va faoliyatning o‘rni juda ahamiyatlidir degan fikrni qo‘llab quvvatlaydi. Muloqot psixikaning fundamental asosi bo‘lganligi uchun ham shaxs shakllanishiga va uning xususiyatlariga ta’sir ko‘rsatadi. Kishi atrofdagilar bilan muloqot o‘rnatish bilan birga o‘zi bilan ham muloqot o‘rnatadi. Bunday vaziyatlarda shaxsda o‘ziga nisbatan tanqidiy qarashlar kuchayadi, qolaversa, tahlil kuchayib o‘ziga nisbatan shaxsda past baho berish vujudga keladi. Bilamizki ongning rivojlanishi muloqot bilan bog‘liq, inson atrofdagilar bilan qancha ko‘p muloqot qilar ekan uning ongi ham shunchalik rivojlanib boradi. Masalan, bir inson turli xil faoliyatlar bilan shug‘ullansa uning o‘z-o‘ziga baho berishi, o‘zini nazorat qila olishi va boshqalarga bo‘lgan munosabat va qarashlari ham shuncha yuqori bo‘ladi. Bu esa ushbu insonning ongining rivojlanib borayotganligidan dalolatdir.

N.A.Menchinskayaning fikricha, o‘zini past darajada hurmat qiladigan shaxslar o‘zlarini keraksiz insondek his qiladilar. Kishining ruhiy holatining tushib ketishi, uning xatti-harakatlarining o‘zgarishida, o‘ziga baho berish darajasining pasayib ketishida namoyon bo‘ladi. O‘ziga past baho beradigan kishilar uchun qiyinchiliklar hal bo‘lmaydigandek tuyuladi, shuning uchun ular hayollarda yashay boshlaydilar. N.A.Menchinskaya bolalar odatda maktabga ijobiy tasavvurlar bilan keladilar, deydi. Ayrim, qobiliyati past yoki tayyorgarligi past bo‘lgan o‘quvchilar, o‘quv faoliyatini o‘zlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelishadi, past baho olishadi, buning natijasida, ularda ta’lim muassasasiga nisbatan yomon munosabat paydo bo‘ladi, qolaversa, bu motivatsiyaning o‘zgarishiga sabab bo‘lib, maktab va o‘qishga bo‘lgan munosabatni salbiylashtiradi. Bu kabi salbiy munosabatlarga, qiyinchilikka bardosh bera olmay, bola o‘ziga past baho bera boshlaydi. Buning asosiy sababi esa o‘qituvchi va ota-onaning bolaga bajarishi qiyin bo‘lgan faoliyatga undashidir. Masalan, o‘qituvchi bolaga bajarilish darajasi ancha murakkab bo‘gan bir topshiriq berdi. Tabiiyki bola bu vazifani bajarish unga anchagina qiyinchilik tug‘diradi, shu vaziyatda esa bolada “Men buni bajara olmayman!” degan fikr paydo bo‘ladi. Aynan mana shu vaqtdan boshlab bola o‘ziga past baho qo‘yadi va u uchun hayotida uchraydigan ko‘pchilik vaziyatlar murakkabdek tuyiladi. Bu kabi topshiriqlar ota-ona tomonidan berilishi bolaning menini rivojlanishida salbiy oqibatlarga olib keladi.

“Men” konsepsiyasining shakllanishida ota-onalarning o‘zaro munosabatlari muhim bir omil ekanligi bilan bog‘laydilar. Ota-onalarning bola bilan o‘zaro munosabati va uning o‘zini anglashi o‘rtasidagi o‘zaro aloqa, o‘zini boshqarish shakli

sifatida, bola xulq-atvorini boshqarish usullari va ota-ona munosabatlarini namoyon etuvchi model sifatida ochib beriladi. Ya’ni ota-ona o‘z farzandlariga qachonki yuksak baho berib muomala qilar ekan, shundagina bolaning o‘z-o‘ziga bo‘lgan bahosi ortib boraveradi. Bunda asosan onaning roli muhim, chunki farzandning eng ko‘p vaqti ona bilan birgalikda o‘tadi. Bolaga eng sara samimiy va ijobiy fazilatlar ona orqali singdiriladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak shaxsning shaxs sifatida kamol topishida, g‘z menini va g‘zligini anglab borishida ijtimoiy muhit, oila hamda faoliyatning o‘rni beqiyosdir. Aynan mana shu doirada shaxsning ijtimoiy qiyofasi shakillanadi va unda bevosita shaxslar bilan muloqotda bo‘ladi bu esa menlikni yuksak darajaga olib chiqishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. V. Karimova. Ijtimoiy psixologiyava amaliyot. — T .: 2009.
2. V. Karimova, O. Xayitov. Shaxsning ijtimoiylashuv masalasi. - T .: 2007.
3. Sunatullaevna, K. A., & Axmedovich, R. O. (2022). Internet is a depression. The benefits and harms of cyberspace on the human psyche. *Eurasian Scientific Herald*, *5*, 69-73.
4. Комилова, А. С., & Равшанов, О. А. (2022). TALABALARDA O ‘ZIGA BO ‘LGAN ISHONCH VA PSIXOLOGIK MADANIYATNI OSHIRISH: Komilova Aziza Sunatullaevna, Mirzo Ulug ‘bek nomidagi O ‘zbekiston Milliy Universitetining Jizzax filiali “Psixologiya” kafedrasi katta o ‘qituvchisi Ravshanov Olim Axmedovich, Mirzo Ulug ‘bek nomidagi O ‘zbekiston Milliy Universitetining Jizzax filiali “Psixologiya” kafedrasi katta o‘qituvchisi. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (4), 267-270.
5. Тошпулатова, Н. Х., & Комилова, А. С. (2016). Психолого-педагогическая работа по организации самовоспитания подростков. *Молодой ученый*, (10), 1306-1308.
6. Комилова, А. (2021). Роль родителей в подготовке молодежи к семейной жизни. *Общество и инновации*, *2*(10/S), 437-441.
7. Жуманова, Н. Ш., Тошпулатова, Н. Х., & Комилова, А. С. (2016). Развитие инновационных систем в образовании. *Молодой ученый*, (4), 777-778.
8. Алимкулов, С. О. У., Мелибоев, А. Р., Комилова, А. С., & Туракулов, Л. Т. (2016). Решение разных проблем в образовании с помощью 3D-технологии. *Проблемы педагогики*, (12 (23)), 12-13.
9. Sunatullaevna, K. A. (2022). KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 518-521.
10. Sunatullaevna, K. A., & Qudratovna, N. F. (2022). INTERFAOL METODLARNI QO‘LLASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 521-525.
11. Komilova, A., & Adilova, M. (2023). SHAXS EMOTSIONAL INTELLEKTINING PSIXOLOGIK VA PSIXOFIZIOLOGIK JIXATLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2).

12. Komilova, A., & Adilova, M. (2023). AGRESSIYA–OSMIRLARDA YUZAGA KELADIGAN TAJOVUZKORLIK RIVOJLANISHIGA TASIR ETUVCHI FENOMEN SIFATIDA. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1).
13. Komilova, A., Husenova, M., & Xidirova, M. (2023). O‘SMIR YOSHIDAGI O‘QUVCHILARNI KASB HUNARGA YO‘NALTIRISHNING ASOSIY XUSUSIYATLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, *3*(1).
14. Aziza, K., & Xurshida, M. (2023). TA’LIM-TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISHNING O ‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 419-422.
15. Aziza, K., & Mohinabonu, H. (2023). TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 87-89.
16. Komilova,A.S. (2023). O ‘QUV TARBIYA JARAYONINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA INDIVIDUAL YONDOSHUV. *GOLDEN BRAIN*, *1*(31), 126-133.

PSIXOLOGIK TRENING HAQIDA TUSHUNCHA

Anorboyev Xayitboy Eshboy o‘g‘li,
Tog‘ayeva Shohzoda Uralovna
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
anorboyevhayitboy@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada psixologik trening va uning o‘ziga xos xususiyatlari, maqsadi va vazifalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Psixologiya, trening, barkamol shaxslar, tarbiya, maqsad, vazifa, predmet, trening tamoyillari, fidoiylik, Sheriklik, Xulq-atvor ob’ektivlashishi;

Jamiyatimizda sodir bo‘layotgan turli xil oilaviy, ish yuzasidan kelib chiqayotgan asabiylik, tanglik va stressdan olib chiqish uchun ushbu psixologik treninglar ishlab chiqilmoqda. Ayni kunda psixologiyaning muhim sohasi bo‘lgan, ta’limda esa innovatsion texnologiya sifatida keng qo‘llanilayotgan psixologik treningning qo‘llanilishi yoritilgan.

Zamonaviy psixologiya sohalarining muammolaridan biri har tomonlama barkamol shaxslarni tarbiyalash va jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga ko‘maklashish, malakalarini rivojlantirish hisoblanadi.

Bu boradagi ishlarni amalga oshirishda albatta, psixologik treningni o‘ziga xos o‘rni mavjud bo‘lib, hozirda mutaxassislar fanning imkoniyatlaridan keng foydalanib kelmoqdalar desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Trening – bu odamning muloqot uslubini o‘zgartirishga, uyg‘unlashtirishga, kerakli ko‘nikmalarni singdirishga va boshqa odamlar bilan o‘zaro munosabatlarida namoyon bo‘ladigan yoki ong osti xarakterga ega bo‘lgan qarama-qarshiliklarni hal